NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

BADIIY MATNDAGI MODAL SO‘ZLAR JOYLASHUVINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

To‘xtasinova Yoqutxon Baxromjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0008-5962-5108

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy matndagi modal so‘zlar joylashuvining lingvopoetik xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek modal so‘zlarning joylashuvi qaxramon xarakterini tasvirlashda, yozuvchining ko‘zlagan estetik maqsadini ifodalashda, gaplarni mantiqan bog‘lashdagi vazifalari ham tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, badiiy-estetik tafakkur, modal so‘zlar, modal analitik konstruksiyalar, inversiya.*

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПОЛОЖЕНИЯ МОДАЛЬНЫХ СЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются лингвопоэтические особенности расположения модальных слов в художественном тексте. Также анализируются функции расположения модальных слов в раскрытии характера персонажа, выражении эстетического замысла автора и логической связи между предложениями.*

Ключевые слова: *художественный текст, художественно-эстетическое мышление, модальные слова, модальные аналитические конструкции, инверсия.*

LINGUOPOETIC FEATURES OF THE PLACEMENT OF MODAL WORDS IN LITERARY TEXTS

Abstract: *This article examines the linguopoetic features of the placement of modal words in literary texts. It also analyzes the functions of modal word placement in portraying characters, expressing the author’s intended aesthetic purpose, and establishing logical connections between sentences.*

Keywords: *literary text, artistic and aesthetic thinking, modal words, modal analytical constructions, inversion.*

Badiiy asarda har bir so‘z o‘zining grammatik vazifasi bilan birgalikda badiiy yukka ham ega. Asar qahramonlarining nutqi orqali uning ichki dunyosi, xarakteri va ijtimoiy mavqei ochib berilishi ma’lum. «Modal yuklamalar, undovlar, shuningdek modal so‘zlar, bog‘lovchilar diskursiv so‘zlar deb ataluvchi birliklar qatoriga kiradi. Odatda, ular denotativ ma’noga ega bo‘lmagan leksik birliklar bo‘lib, ularning vazifalari quyidagilardan iborat: matnning yaxlitligi va bog‘liqligini ta’minlash; so‘zlovchi va tinglovchi yoki muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi diologik jarayonni tartibga solish; insonning ichi o‘y-hayollari, ruhiy kechinmalarini tasvirlash; zarur emotsional fonni yaratish; matnning ritmik tashkil etilishini ta’minlash»[4]. Biz tadqiq qilayotgan modal so‘zlar ham qahramon nutqida ana shunday vazifani bajara olish imkoniyatini beradi. Garchi, modal so‘zlarning gapdagi erkin joylashuvi sintaktik sath uchun odatiy bo‘lsa-da, badiiy matnda har qanday so‘zning o‘z o‘rni va joylashuvi zamirida jiddiy lisoniy niyat bo‘ladi. Demak, modal so‘zlar ishtirokidagi gaplar, modal so‘zlarning joylashuviga ko‘ra turli uslubiy-ma’noviy yuklarni o‘zida namoyon etadi. Natijada esa yozuvchi o‘quvchiga eng muhim semantik markazni yetkazib bera oladi. Badiiy asarlarda modal so‘zlar joylashuvi personaj nutqini individuallashtirish, his-tuyg‘ularini bo‘rttirish va mantiqiy urg‘uni kerakli so‘zga tushirish uchun xizmat qiladi. Odatda modal so‘zlar gapning boshida qo‘llanilganda, butun gapga tasdiq modal bo‘yoq berishi ma’lum. Shuningdek, oldingi gapning mantiqiy davomi sifatida matndagi gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun ham qo‘llaniladi. Masalan, Bular bir tiyin, ikki tiyin, besh tiyinning yuziga qaramay, choyga, nonga, o‘tinga, tuz, qalampirga ortoqcha pul to‘lab ketar edilar. Albatta, men ularni o‘z cho‘ntagimga qaytarib olar edim. (G‘.G‘ Shum bola)

Quyida esa «O‘tgan kunlar» romanidan olingan parchada albatta modal so‘zi gaplarning oxirida qo‘llanilib, birinchi gapda muallif tomonidan, ikkinchi gapda Otabek nutqida qo‘llanilgan. Yozuvchi va muallif nutqida albatta modal so‘zining joylashuvi bir xil tarzda qo‘llanilsada, turli modal bo‘yoqlarni ifodalab kelgan.

*O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq… Otabek ma’lumki, ularning «qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lgan ishlarini», **albatta, bilar edi**. Shundoq ham bo‘lsa, bilmaganga solindi: – Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari, **albatta, noma’qul bo‘lmas,** – dedi.»* (Abdulla Qodiriy, O‘tgan kunlar).

Qat’iy ishonch va tasdiqni ifodalovchi albatta modal so‘zi, odatda, gapda joylashuvi erkin bo‘lib, yozuvchi ushbu parchada modal so‘zni deyarli gapning oxirrog‘iga surib, yuqori badiiy-estetik ma’no hosil qilgan. Yozuvchi albatta, bilar edi deyishi orqali Otabekning qilayotgan taxmini qanchalik to‘g‘ri ekanligini kitobxonga bo‘rttirib ko‘rsatadi. Otabekning nutqidagi albatta, noma’qul bo‘lmas, ya’ni tasdiq modal so‘zining inkor birikmasi oldidan qo‘llanilishi gapga estetik ma’no yuklab, piching va mutlaq norozilik ohangini yuzaga keltiradi. Agar Albatta, aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an

ishlari noma'qul bo'lmas deyilganda, yozuvchi ko'zlagan Otabekning noroziligi ifodalanmagan bo'lar edi. Garchi Otabek otasining andishali savoliga ochiqdan ochiq qarshi chiqmasa-da, ota-onasining bu ishlaridan qattiq norozi bo'lganligini «sizlar aqlli hisoblab qilgan ishingiz, aslida, noma'qul bo'libdi» degan yashirin pichingni ifodalagan.

«Ufq» trilogiyasida qahramonlar xarakterini shakllantirish va ularning ruhiy holatlarini tasvirlashda yozuvchi til birliklarining imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Asardagi qahramonlardan biri Tursunboyning ichki o'y-xayollarida qo'llanilgan modal so'z orqali uning ruhiy tanazzuli va ma'naviy inqirozi ochib berilgan:

Tursunboy Zebining ovozini ham eshitdi. Eshitdi-yu, o'zi ovoz chiqazolmadi. Agar yolg'iz uchratolsa edi, ***albatta,*** *ovqat keltirishini yalinib so'rardi. Yo'q, yolg'iz uchratolmayapti* (Said Ahmad, «Ufq»).

Ushbu jumlada albatta modal so'zi qo'shma gaplarning o'rtasida qo'llanilib, kitobxonda qahramonga nisbatan nafrat va achinish hissini uyg'otuvchi estetik vazifani bajargan. Yozuvchi qahramonning yashashdan maqsadi ovqat bo'lib qolganini, albatta modal so'zi orqali kitobxonga uning butun ichki dunyosini ko'rsatib beradi. «Albatta» so'zining «ovqat keltirishini yalinib so'rardi» birikmasidan oldin kelishi o'quvchi diqqatini qahramonning niyatiga yo'naltiradi. Modal birlikning aynan shu o'rinda qo'llanishi qahramon niyatining aslida nima ekanligiga urg'u berishdir. Natijada qahramonning ruhiy holati, o'y-hayollari va ochlikdan nochor holati yanada ta'sirchan ifodalanadi.

Professor N.Mahmudov ta'biri bilan aytsak, «Haqiqiy she'rda har bir so'z, qo'shimcha, tinish belgisi muayan, muntazam estetik qimmatga ega»[2]. She'riyatda lisoniy birliklarning bunday estetik yukni ifodalashi va sintaktik pozitsiyalarda namoyon bo'lishi bevosita ijodkorning individual uslubi bilan bog'liqdir. Ta'bir joizki, «Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkurining o'ziga xosligi shundaki, u muayyan hodisaga yoki ma'lum bir mavzuga kutilmagan tomondan yondashadi. Jumladan, xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar talqinida ham hech bir ijodkorni takrorlamaydi. Hech kimning xayoliga kelmagan ohorli tashbehlar-u istioralarni qo'llaydi»[1]. «Hikmatli gaplar» (1979) she'ri ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Hikmatli gaplarga ***quloq solmoq darkor****.*

Quloq solmoq darkor xalqning so'ziga,

Lekin odamlarning bir odati bor,

Maqol to'qiydilar moslab o'ziga.

Shoir kitobxonni o'ylashga, xulosa chiqarishga undaydi. Birinchi satrning oxirida kelgan modal analitik konstruksiya[5] (quloq solmoq+darkor), ikkinchi satrning boshiga ko'chadi. Bu usul she'riy nutqning musiqiyligi ritmini ta'minlaydi. Keyingi misraning boshida kelishi va modal analitik konstruksiyaning takrorlanishi lirik paradoks uchun ko'prik vazifasini bajargan. Ya'ni shoir avval hamma tan olgan haqiqatni «quloq solmoq darkor» jumlasi orqali qat'iy qilib aytadi va ikkinchi misrada ham takrorlab, o'quvchini uchinchi misradagi zidlov burilishi uchun tayyorlaydi. Bu takror she'rda mantiqiy zanjir yaratib, jumlaning ta'sir quvvatini ikki barobar kuchaytirgan. Birinchi satrda modal-analitik konstruksiya ritmni yakunlab kelgan bo'lsa, ikkinchi satrning boshiga chiqadi va o'quvchining diqqatini kelayotgan antitezaga tayyorlaydi.

Shoirning «Majlis qiling» she'rida modal so'zning inversiya hodisasiga uchrashi orqali badiiy ifoda muhim vositalardan biriga aylangan:

Gar mobodo majlisingiz

Ertaroq bo'lsa tamom,

Sizga lozimdir yig'inni

Uyda ettirmoq davom. (Erkin Vohidov, Saylanma)

Ma'lum bo'ladiki, she'rda inversiya hodisasi mavjud bo'lib, lirik qahramonning tanqidiy pozitsiyasini kuchaytirib bergan. *Davom ettirmoq + lozimdir* modal analitik konstruksiyasi inversiya sabali alohida satrlarda ifodalansada, modal so'zning majburiyat ma'nosi poetik jihatdan ta'kidlanib, o'quvchi zaruriyat ma'nosining bo'rttirib ko'rsatilayotganligini darrov anglab oladi. Anglashiladiki, modal so'zlarning turli o'rinlardagi joylashuvi orqali, qahramonning fe'l-atvori, yozuvchining niyati va kitobxon diqqatini boshqarish, yozuvchining mantiqiy urg'usini ifodalash va matnda kelgan birliklarning mazmuniy bog'liqligini bog'lash kabi vazifalarni bajarishiga guvoh bo'ldik. She'riyatda esa modal analitik konstruksiyalar shaklida qo'llanilganda, inversiya hodisasiga uchrab, sherning emotsional-ekspressiv ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Quyida «Ufq» trilogiyasidan olingan parchalardagi *xayriyat* modal so'zini lingvopoetik imkoniyatlariga guvoh bo'lamiz:

Tutun tarqaganda Ikromjon o'g'lining qamishlarni qayirib hamon qochib ketayotganini ko'rdi. ***Xayriyat, tegmabdi, dedi.*** *Yana miltiqni o'qladi. Bu gal bolani mo'ljalga olmadi* (Said Ahmad, «Ufq»).

Asardagi bu epizod eng fojiaviy va ruhiy kuchlanishi yuqori nuqtalaridan biridir. Ikromjonning o'z jigargo'shasiga, vatan xoiniga aylangan o'g'li Tursunboyga qarata o'q uzishi va undagi ziddiyatli tuyg'ular xayriyat modal so'zi orqali behad kuchayadi. Qahramon nutqidagi xayriyat so'zi gapning boshida qo'llanilib, uning ichidagi «Ota» g'olib chiqqanini, o'q tegmaganidan cheksiz yengillik sezganini fosh qiladi. Bu so'z qahramonning portlashi, uning barcha tushunchalardan ustun turgan otalik mehridir. Bizningcha, yozuvchi o'zbek otasining qattiqqo'l va jiddiy ko'ringan yuzi ortidagi ota mehri va insonparvarlik xislatlarini xayriyat so'zi ochib bergan. Shuningdek, ijobiy his-tuyg'uni, xursandchilik va shukronalik kabi subyektiv ma'nolarni ifodalovchi xayriyat modal so'zi badiiy matnda butunlay teskari – salbiy, pichingni ifodalovchi poetik vosita vazifasida qo'llanilishi mumkinligini quyidagi parcha orqali tahlil qilamiz [6].

Aytgancha, sevinib qoldingizmi? Tursunboy kelib, sevinib qolgandirsizlar? ***Xayriyat, butun qaytibdi.*** *Bu odam nimalar deyapti. Mastmi? Ikromjon unga qarab angraygancha turardi* (Said Ahmad, «Ufq»).

Parchadagi xayriyat modal so‘zi gapning boshida qo‘llanilib, butun gapga qahramonning salbiy va piching ohangini ifodalash uchun xizmat qilgan. Shunindek, qahramonning xarakterini ochishda muhim lingvistik vosita sifatida qo‘llanilgan. Chunki xayriyat modal so‘zi uning xursandchiligini emas, balki ikkiyuzlamachi va soxta munosabatini ifodalab kelgan, ya’ni o‘g‘lingiz qo‘l-oyog‘i bus-butun bo‘lsa-da, urushga bormay, qochib yuribdi degan salbiy gapdan-da og‘irroq va ta’sirliroq ifodalangan. Qahramonning salbiy xarakter chizgilari va o‘ziga xos nutq uslubi orqali asarga kuchli poetik-estetik bo‘yoq bergan.

Badiiy asarlarda qahramonlar ruhiyatidagi chorasizlik, taqdirga tan berish yoki murosaga ko‘nish kayfiyatini ifodalashda *mayli* modal so‘zi ham muhim estetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Quyidagi parchada qahramonlarning vaziyati va xarakteri *mayli* modal so‘zining turli o‘rinlarda qo‘llanilishi orqali ifodalab berilgan.

*Shunaqami?.. Xo‘p, **mayli**, aytganing bo‘la qolsin, – dedi va biroz o‘ylab turib, g‘ijinganini yashirolmay ilova qildi: – Lekin go‘ristonga pichoq emas, qumg‘on olib borasan. Onhazratim sag‘anasi oldida qumg‘on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, **maylimi**? – **Mayli**, **mayli**! – dedi Unsin ko‘zlari javdirab, – Lekin lafzingizdan qaytmasangiz…* (Abdulla Qahhor, «Dahshat»).

Hikoyada Dodxohning nutqidagi ***mayli modal so‘zi gapning boshida qo‘llanilib,*** *aytganing bo‘la qolsin* deb bosiqlik va zaharxandalik bilan bo‘lsa-da, mayinlik bilan javob berishi ifodalangan bo‘lsada, Dodxohning *maylimi* deb gapining so‘ngida so‘rashi esa, Unsinning roziligini bilish uchun emas, balki qizni ruhan ezish va chorasizligi ustidan kulishi tasvirlangan. Unsinning ko‘zlari javdirab, *Mayli, mayli!* deb javob berishi ortida o‘sha davrdagi ayollar uchun go‘riston dahshat emas, balki Dodxohning uyida to‘rtinchi xotin bo‘lib yashash dahshat ekanligi *mayli* modal so‘zining gapning boshida takrorlanishi va Unsinning ilojsizligi, chorasizligi va alamli faryodidir.

Xayr so‘zi esa «yaxshi, mayli, xo‘p»; «nima bo‘lsa, bo‘ldi» degan ma’nolarda modal so‘z sifatida izohlangan[3]. Xayrlashuv va vidolashuv ma’nolarida qo‘llanilganda, undov so‘z deb belgilangan. Badiiy matnda xayr, xullas kabi modal so‘zlari ham poetik-estetik jihatdan ahamiyatlidir. Quyida Ahmad Sedob obrazining nutqida qo‘llanilgan ushbu modal so‘zlarning poetik-estetik vazifalariga guvoh bo‘lamiz: Bir umr tepkilab kiyganda ham, asl mol-da, tamom bo‘lmaydi. Xayr, sizga nasib qilgan ekan, yaxshilikka buyursin, – deydi. Xaridor narx so‘raydi. … – Xayr, xayr, qani, shoshmang, siz qancha berasiz? – deydi. Xullas, xaridorning u yog‘idan o‘tib, bu yog‘idan o‘tib, shimni sotadi (G‘afur G‘ulom, «Shum bola»). Parchada «xayr» modal so‘zi ikki o‘rinda gaplarning boshida qo‘llanilib: birinchi gapda fikrning oldingi vaziyat bilan bog‘lanishini ta’minlab, rozilik, yon berish va suhbatni muayyan yo‘nalishga burish ma’nolarini yuzaga chiqaradi. Ikkinchi gapda «Xayr, xayr» shaklida takror holatda gapning boshida kelishi nutqning ekspressivligini oshiradi. Takror orqali qahramonning suhbatdoshni to‘xtatish, avvalgi fikridan qaytish va savdolashuvni davom ettirishga undash maqsadi yuzalanadi. «Xullas, xaridorning u yog‘idan o‘tib, bu yog‘idan o‘tib, shimni sotadi» jumlasida «xullas» modal so‘zi gap boshida kelib, oldingi savdolashuv jarayonining yakuniy natijasiga o‘tishni ta’minlaydi. Ya’ni umumlashtirish vazifasi — oldingi nutqiy vaziyat va savdolashuv jarayonini xulosalab, natijani qisqa shaklda ifodalaydi. Voqealar rivojidan yakuniy natijaga o‘tishni ta’minlab, matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni mustahkamlaydi va matnning mantiqiy yakunini ifodalab, qahramonning savdodagi mahoratini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Tahlillardan ko‘rinadiki, badiiy asarlardagi modal so‘zlar qahramonlarning his-tuyg‘ulari, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga ularning subyektiv munosabatini yetkazib bera olishi bilan birga, kitobxonning o‘sha muhitni yanada aniqroq his qilishi hamda o‘sha makon va zamondagi qahramonlar bilan birga xayolan yashay olishi kabi tuyg‘ularni yuzaga keltiradi. Olib borilgan tadqiqodlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, badiiy matndagi modal so‘zlarning joylashuvi qahramonlarning hissiy va ruhiy olamini, ularning xarakterini va muallifning ko‘zlagan maqsadini ifodalash uchun modal so‘zlar shunchaki grammatik birlik emas, poetik-estetik lisoniy vositalardan biri sifatida tahlil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулҳакимова, О. (2022). Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари [Монография]. Fan va ta’lim.

2. Mahmudov, N. (2025). Zarif so‘z ziyorati. Booknomy print.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2023). VI jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

4. Ruzhitsky, I. (2025). Modal particles and interjections in Fyodor M. Dostoevsky’s works of fiction: Lexicographic representation. Critique and Semiotics, (1), 77.

5. To‘xtasinova, Y. (2026). Modal ma’noli so‘zlarning xususiyatlari. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi, (9/4), 184–186. https://mamun.uz/ru/bulletin/archive/2026/9_4

5. To‘xtasinova, Y. B. (2026). Badiiy matndagi modal so‘zlarning qahramon xarakterini ifodalovchi poetik-estetik funksiyasi. Ilm vaqti (Science Time), 4(7/2), 66–69. https://www.uzresearchers.com/index.php/stj/article/view/6973/7463